

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK FOLKLORIDA AYOL OBRAZINING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI

Xoliqova Barchinoy Bahodir qizi

Shofirkon tumani 19-sonli umumta'lim maktabi, o'qituvchi, magistr.

e-mail: xoliqovabarchinoy1210@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-4369-3630>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek folklorida ayol obrazining shakllanishi, uning an'anaviy badiiy talqini hamda zamonaviy folkloriy tafakkurdagi transformatsiyasi tahlil qilinadi. Xalq dostonlari, ertaklar, afsona va rivoyatlar, qo'shiqlar, maqol va matallarda uchraydigan ona, yor, kelin, qiz, dono ayol, sadoqatli turmush o'rtoq va qahramon ayol obrazlarining semantik hamda badiiy funksiyalari yoritiladi. An'anaviy folklorida ayol obraziga xos bo'lgan go'zallik, sadoqat, sabr-toqat, mehr-muhabbat, donolik va fidoyilik kabi fazilatlarining ifoda shakllari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek folklori, ayol obrazi, folklor poetikasi, xalq dostonlari, ertak, mifologik tafakkur, milliy qadriyatlar, gender talqini, an'anaviy obraz, zamonaviy folklor.

ТРАДИЦИОННАЯ И СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Холикова Барчиной Баходир кизи

Общеобразовательная школа № 19 Шафирканского района, учитель, магистр.

Аннотация.

В статье анализируются формирование образа женщины в узбекском фольклоре, его традиционная художественная интерпретация и трансформация в современном фольклорном сознании. Раскрываются семантические и художественные функции образов матери, возлюбленной, невестки, девушки, мудрой женщины, верной супруги и женщины-героини, представленных в народных эпосах, сказках, легендах и преданиях, песнях, пословицах и поговорках. Рассматриваются формы выражения таких традиционно присущих женскому образу качеств, как красота, верность, терпение, любовь, мудрость и самоотверженность.

Ключевые слова: узбекский фольклор, образ женщины, поэтика фольклора, народный эпос, сказка, мифологическое мышление, национальные ценности, гендерная интерпретация, традиционный образ, современный фольклор.

TRADITIONAL AND MODERN INTERPRETATIONS OF THE FEMALE IMAGE IN UZBEK FOLKLORE

Xoliqova Barchinoy Bahodir qizi

General Education School No. 19, Shofirkon District, Teacher, Master's Degree Holder.

Abstract.

This article analyzes the formation of the female image in Uzbek folklore, its traditional artistic interpretation, and its transformation in contemporary folkloric thought. It examines the semantic and artistic functions of such female figures as the mother, beloved, daughter-in-law, young woman, wise woman, faithful wife, and heroine represented in folk epics, fairy tales, legends and narratives, songs, proverbs, and sayings. The study considers the forms through which qualities traditionally associated with female characters—beauty, loyalty, patience, love, wisdom, and self-sacrifice—are expressed in folklore.

Keywords: Uzbek folklore, female image, folklore poetics, folk epics, fairy tale, mythological thinking, national values, gender interpretation, traditional image, contemporary folklore.

Kirish. Folklor xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi. Undagi obrazlar tizimi orqali muayyan xalqning borliq, inson, oila, jamiyat, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar haqidagi tasavvurlari namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek folklorida ayol obrazi alohida semantik va estetik ahamiyatga ega bo'lib, u turli janrlarda ona, qiz, yor, kelin, turmush o'rtoq, dono maslahatgo'y, himoyachi hamda qahramon sifatida gavdalanadi.

O'zbek xalq dostonlari, ertaklari, afsona va rivoyatlari, marosim qo'shiqlari, maqol va matallarida ayol obrazi, avvalo, oilaviy qadriyatlar, sadoqat, mehr-muhabbat, sabr-toqat, or-nomus va donolik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Biroq mazkur obraz faqat maishiy yoki oilaviy vazifalar bilan cheklanmaydi. Ayrim folklor namunalari ayol o'z qaroriga ega, murakkab vaziyatlarda faol harakat qiluvchi, qahramonga yo'l ko'rsatuvchi, uning ma'naviy tayanchi bo'luvchi yoki voqealar rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida ham

namoyon bo'ladi. Bu holat xalqning ayol haqidagi badiiy tasavvurlari biryoqlama emas, balki ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi.

Jamiyatning tarixiy va madaniy taraqqiyoti bilan birga ayol obrazini anglash va ifodalash shakllari ham o'zgarib bormoqda. Zamonaviy folkloriy jarayonlarda an'anaviy obrazlarga xos sadoqat, mehr, fidoyilik va oilaparvarlik xususiyatlari saqlanib qolgan holda, ularga mustaqillik, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, o'zligini anglash va shaxsiy tanlov kabi yangi mazmunlar qo'shilmogda. Ayniqsa, kundalik og'zaki muloqot, zamonaviy hikoyalar, latifalar, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan folkloriy birliklar va ommaviy madaniyat bilan bog'liq matnlarda ayolning jamiyatdagi mavqeyi va roliga doir yangicha qarashlar kuzatiladi.

Shu bois o'zbek folklorida ayol obrazining an'anaviy va zamonaviy talqinlarini qiyosiy o'rganish folklor poetikasidagi davomiylik va yangilanish jarayonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi o'zbek folklorining turli janrlarida uchraydigan ayol obrazlarining badiiy-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning an'anaviy modelini aniqlash hamda zamonaviy folkloriy tafakkurda yuz berayotgan transformatsiyalarni yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek folklorida ayol obrazini o'rganish xalq og'zaki ijodining obrazlar tizimi, epik tafakkur, marosim madaniyati va mifologik tasavvurlarni tadqiq etish bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek folklorshunosligining dastlabki ilmiy maktabi Hodi Zarif faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Olim xalq baxshilaridan "Yusuf bilan Ahmad", "Yodgor", "Ravshan", "Rustamxon" singari dostonlarni yozib olib, o'zbek eposining janriy va badiiy xususiyatlarini ilmiy o'rganishga asos yaratgan. V. M. Jirmunskiy va H. T. Zarifovning "Узбекский народный героический эпос" asari ham o'zbek qahramonlik eposining genezisi, obrazlar tizimi va epik an'analarni tadqiq etishda fundamental manbalardan biri hisoblanadi [1]. Mazkur tadqiqotlarda ayol obrazi alohida mustaqil obyekt sifatida markazga chiqarilmagan bo'lsa-da, epik qahramonlar tizimidagi yor, ona, maslahatgo'y va qahramon ayol tiplarini o'rganish uchun nazariy asos yaratilgan.

To'ra Mirzayevning o'zbek dostonchiligi va epik an'analarga bag'ishlangan tadqiqotlari ham mavzu nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Uning "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" yo'nalishidagi izlanishlarida doston variantlari qiyosiy o'rganilib, syujet, obraz va ijrochilik an'analarni o'ziga xos jihatlari aniqlangan. "Alpomish"dagi Barchin obrazi an'anaviy ayol timsolining nisbatan faol ko'rinishlaridan biridir: u faqat qahramonni kutuvchi yor emas, balki o'z shartlarini qo'ya oladigan, tanlov qiladigan, aql-zakovati va qat'iyati bilan syujet rivojiga ta'sir etadigan obrazdir. T. Mirzayevning epik repertuar va dostonchilik maktablariga doir izlanishlari ayol obrazlarini turli variantlar doirasida qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi [8].

Ayol obrazining oilaviy-maishiy va marosimiy talqinlarini o'rganishda folklorshunos Muzayyana Alaviya merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" monografiyasida to'y va boshqa marosimlarga aloqador folklor namunalari tizimli o'rganilgan [3]. "Yor-yor", o'lan, kelin bilan bog'liq aytimlar va boshqa marosim qo'shiqlarida qizning ota uyidan kelinlik maqomiga o'tishi, uning ruhiy kechinmalari, oila va jamiyat oldidagi vazifalari poetik ifoda topadi. Shu sababli M. Alaviya tadqiqotlari o'zbek folkloridagi qiz, kelin va ona semantik modellarning an'anaviy asoslarini ochishda muhim manba hisoblanadi.

Bahodir Sarimsoqovning "O'zbek marosim folklori" monografiyasida marosim folklorining genezisi, janriy tabiati va poetik funksiyalari tadqiq etilgan [4]. Olimning yondashuvi ayol obrazini ma'lum marosimning passiv ishtirokchisi sifatida emas, balki marosim tizimidagi muhim semantik subyekt sifatida tushunishga imkon beradi. Ayniqsa, nikoh, mavsumiy va oilaviy marosimlarda ayolning ijtimoiy maqomi, ona, kelin va uy bekasi bilan bog'liq tasavvurlar folklor matni hamda ritual harakatning birligi orqali shakllanishini kuzatish mumkin. Sarimsoqovning marosim va marosim folklorini o'zaro bog'liq holda tadqiq etishi ayol obrazining shakllanishida faqat verbal matn emas, balki urf-odat, ramz va ritual kontekst ham katta o'rin tutishini ko'rsatadi.

O'zbek folkloridagi obrazlarning mifologik va ramziy mohiyatini talqin etishda Jabbor Eshonqulning folklor obrazlariga doir qarashlari hamda Mamatqul Jo'rayev va Darmonoy O'rayevaning "O'zbek mifologiyasi" kitobi metodologik jihatdan muhimdir [7]. Bu tadqiqotlar folklor obrazlarini xalqning qadimiy tafakkuri, mifologik tasavvurlari, kultlar va e'tiqodlar bilan bog'liq holda tushuntiradi. Bunday yondashuv ayol obrazining faqat "ona", "yor" yoki "kelin" kabi ijtimoiy rollar bilan chegaralanmasligini, uning ildizlari hosildorlik, himoya, muqaddaslik, ezgulik va ayrim holatlarda xavf-xatar haqidagi qadimiy qarashlar bilan ham tutashishini aniqlash imkonini beradi.

K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov va O. Safarov hammuallifligidagi "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligi folklor janrlari, ularning poetik xususiyatlari va obrazlar tizimini kompleks o'rganishga xizmat qiluvchi nazariy manbalardan biridir [5]. Unda ertak, doston, qo'shiq, maqol va boshqa janrlarning xususiyatlari umumlashtirilgan bo'lib, mazkur nazariy qarashlar ayol obrazining turli janrlarda qanday funksional o'zgarishga uchrashini qiyoslash imkoniyatini beradi. Masalan, dostonda ayol ko'proq yor, ona, maslahatgo'y yoki qahramon sifatida gavdalansa, marosim qo'shiqlarida kelin va qizning emotsional kechinmalari, maqollarda esa ayolga nisbatan xalqning ijtimoiy-axloqiy baholari ixcham shaklda aks etadi.

Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'zbek folklorshunosligida dostonlar poetikasi, marosim folklori, mifologiya va folklor obrazlarining badiiy tabiati keng o'rganilgan. Biroq ayol obrazining an'anaviy folkloridagi semantik modeli bilan bugungi folkloriy kommunikatsiyadagi o'zgarishlarini yagona qiyosiy tizimda ko'rib chiqish alohida tadqiqotni talab etadi. Zamonaviy og'zaki muloqot, internet folklori, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan hikoyalar, hazil-mutoyiba, maqol va an'anaviy iboralarning yangi variantlarida ayol obrazining mustaqillik, kasbiy faollik, ijtimoiy tashabbuskorlik va shaxsiy tanlov kabi belgilar bilan boyib borishi an'anaviy modelning yo'qolishini emas, balki uning yangi ijtimoiy-madaniy sharoitga mos ravishda transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Shu bois mazkur tadqiqotda an'anaviylik, davomiylik va transformatsiya tamoyillari ayol obrazini tahlil qilishning asosiy ilmiy yo'nalishi sifatida

belgilanadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'zbek folklorida ayol obrazining tarixiy-badiiy shakllanishi va uning zamonaviy folkloriy tafakkurdagi transformatsiyasini aniqlashga qaratilgan kompleks folklorshunoslik yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot material sifatida xalq dostonlari, ertaklar, afsona va rivoyatlar, marosim qo'shiqlari, maqol va matallarda uchraydigan ayol obrazlari hamda zamonaviy og'zaki va raqamli folklorida shakllanayotgan yangi ayol timsollari olindi. Tahlilda tarixiy-qiyosiy, tipologik, semantik, funksional va kontekstual metodlardan foydalanildi.

Tarixiy-qiyosiy metod ayol obrazining an'anaviy folkloridagi shakli bilan zamonaviy folkloriy namunalardagi ko'rinishlarini solishtirishga xizmat qildi. Tipologik metod orqali ona, yor, qiz, kelin, dono ayol, qahramon va himoyachi singari obrazlar umumiy tipologik guruhlariga ajratildi. Semantik tahlil ayol obraziga yuklangan sadoqat, go'zallik, sabr, donolik, matonat, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi ma'nolarni aniqlash imkonini berdi. Funksional metod yordamida ayol obrazining syujetni harakatlantirish, qahramonni qo'llab-quvvatlash, qadriyatlarini uzatish, konfliktni yuzaga keltirish yoki hal etishdagi o'rni belgilandi. Kontekstual tahlilda esa obrazning mazmuni uning yaratilgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy muhiti bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning asosiy qiyoslash birligi sifatida ayol obrazining an'anaviy ko'rinishi, folkloridagi funksiyasi, zamonaviy transformatsiyasi va qiyoslash mezonlari o'zaro bog'liq holda belgilandi. Ushbu yondashuv turli folklor janrlaridagi ayol obrazlarini yagona ilmiy tizim asosida tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval. O'zbek folkloridagi ayol obrazlarini qiyosiy tahlil qilish mezonlari

An'anaviy obraz	Folkloridagi funksiyasi	Zamonaviy transformatsiyasi	Qiyoslash mezonlari
Ona	Mehr, himoya, nasl davomiyligi, ma'naviy tarbiya va oilaviy birlik timsoli	Oilaviy vazifa bilan birga ijtimoiy faol, kasbiy va tarbiyaviy mas'uliyatni birlashtiruvchi obraz	Onalik funksiyasining saqlanishi va ijtimoiy rolning kengayishi
Yor / mahbuba	Sadoqat, go'zallik, muhabbat va qahramonning ruhiy tayanchi	Shaxsiy tanlovga ega, teng munosabatni talab qiluvchi va voqealarga faol ta'sir ko'rsatuvchi obraz	Passiv ideal obrazdan faol subyektga o'tish darajasi
Qiz	Iffat, or-nomus, tarbiya, kelajak oila va avlod ramzi	Ta'lim, mustaqil fikrlash, shaxsiy maqsad va ijtimoiy tashabbus bilan bog'langan obraz	An'anaviy axloqiy ideal va individual o'zlik o'rtasidagi nisbat
Kelin	Yangi oilaga moslashish, sabr, hurmat, mehnatsevarlik va oilaviy munosabatlarni saqlash	O'z fikri, huquqi va oilaviy qarorlarda ishtiroki kuchaygan shaxs	Moslashuvchanlikdan hamkorlik va tenglik modeliga o'tish
Dono ayol / maslahatgo'y	Yo'l ko'rsatish, muammoni hal qilish, hayotiy tajriba va xalq donoligini ifodalash	Bilim, kasbiy tajriba, yetakchilik va ijtimoiy kompetensiya bilan boyigan obraz	Donolikning maishiy tajribadan ijtimoiy-intellektual salohiyatga kengayishi
Qahramon ayol	Matonat, jasorat, sadoqat, himoya va favqulodda vaziyatda faol harakat	Mustaqil qaror qabul qiluvchi, liderlik xususiyatiga ega va o'z taqdirini belgilovchi obraz	Qahramonlikning yordamchi funksiyadan mustaqil faoliyat modeliga o'tishi
Himoyachi ayol	Oila, farzand, urug' va qadriyatlarini asrash	Milliy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar himoyachisi sifatidagi kengroq talqin	Himoya obyektining oiladan jamiyat va madaniyat darajasiga kengayishi
Marosimdagi ayol	Urf-odat, ritual, nikoh, tug'ilish va oilaviy marosimlarning asosiy ishtirokchisi	An'ana tashuvchisi bilan birga uning mazmunini qayta talqin qiluvchi faol subyekt	Ritualdagi ishtirokchilikdan madaniy interpretatorlikka o'tish

Mazkur jadval asosida ayol obrazining transformatsiyasi uch asosiy yo'nalishda baholandi: uning folklor syujetidagi faollik darajasi, ijtimoiy va semantik funksiyalarining kengayishi, shuningdek, an'anaviy qadriyatlarining yangi ijtimoiy-madaniy mazmun bilan uyg'unlashuvi. Shu orqali tadqiqotda an'anaviy ayol obrazi zamonaviy talqinda butunlay inkor etilmay, balki yangi funksiyalar va ma'nolar bilan boyib borayotgan dinamik folkloriy model sifatida ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek folkloridagi ayol obrazlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, an'anaviy folklor poetikasida ayol faqat ona, yor yoki kelin kabi oilaviy rollarni bajaruvchi personaj sifatida tasvirlanmagan. Ayrim dostonlarda u mustaqil qaror qabul qiluvchi, o'z tanlovini himoya qiluvchi va syujet rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faol obraz darajasiga ko'tarilgan. Ertak va marosim folklorida esa ayol obrazi ko'proq axloqiy ideal, oilaviy munosabatlar hamda jamiyat tomonidan qadrlangan xulq-atvor me'yorlari bilan bog'langan. Shu jihatdan o'zbek folkloridagi ayol obrazining rivojlanishini passivlikdan faollikka bir tomonlama o'tish sifatida emas, balki qadimdan mavjud bo'lgan turli obraz modellarining zamonaviy nuqtayi nazardan yangicha talqin etilishi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Buning yaqqol misoli "Alpomish" dostonidagi Barchin obrazidir. Barchin dostonida go'zal va sadoqatli yor sifatida tasvirlanishi bilan birga, o'z taqdiriga oid qarorni mustaqil belgilashga intiluvchi ayol sifatida ham namoyon bo'ladi. Qalmoq alplari unga uylanishga da'vogarlik qilgan vaziyatda Barchin sovchilar oldiga to'rtta murakkab shart qo'yadi: kamon bilan bog'liq sinov, uzoq masofadagi nishonni urish, ot poygasida g'olib bo'lish va kurashda alplarni yengish. Bu holat ayol obrazining faqat tanlanadigan obyekt emas, balki tanlash mezonini belgilaydigan subyekt ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Barchin Alpomishga xabar yetkazadi va uning kelishiga umid qiladi. Demak, uning syujetdagi vazifasi qahramonni kutish bilangina cheklanmay, voqealarning keyingi rivojlanishiga turtki beruvchi faoliyatni ham o'z ichiga oladi [8].

Barchin obrazining zamonaviy talqinida aynan uning shaxsiy tanlovga egaligi alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy talqinda to'rtta shart, avvalo, bo'lajak kuyovning bahodirligi va qahramonlik sifatlarini sinovdan o'tkazish vazifasini bajarsa, bugungi nuqtayi nazardan bu epizod ayolning o'z hayotiy qaroriga ta'sir qilish, munosib juftni tanlash va majburiy nikohni rad etish imkoniyatining folkloriy ifodasi sifatida ham o'qilishi mumkin. Barchinning jasurligi, qat'iyligi va Alpomishga ruhiy madad berishi uni sadoqatli yor modeli bilan bir qatorda faol va irodali ayol tipiga yaqinlashtiradi. Dostondagi Barchin timsolida an'anaviy ayollik fazilatlarini va faol qahramonlik xususiyatlari bir-birini inkor etmay, yagona obraz doirasida uyg'unlashadi.

"Kuntug'mish" dostonidagi Xolbeka obrazi ham ushbu xulosani mustahkamlaydi. Xolbeka husni bilan mashhur bo'lishidan tashqari, aql-zakovati va nard o'yinidagi mahorati bilan ajralib turadi. Unga turli yurtlardan sovchilar kela boshlaganida, Xolbeka o'ziga uylanmoqchi bo'lgan kishiga nard o'ynash shartini qo'yadi: uni yenga olgan kishigagina turmushga chiqishini bildiradi. Muhimi, u hatto hukmdor tomonidan yuborilgan sovchilikka nisbatan ham o'z shartidan voz kechmaydi. Natijada hukmdor uning qarshiligidan g'azablanadi. Mazkur epizod Xolbekaning shaxsiy irodasi tashqi hokimiyat bilan to'qnashgan dramatik vaziyatni yuzaga keltiradi [9].

Xolbeka misolida an'anaviy folklorida ayolning intellektual ustunligi ham muhim badiiy mezonga aylangani kuzatiladi. Agar Barchin bo'lajak yorini jismoniy kuch, bahodirlik va mahorat orqali sinasa, Xolbeka nard o'yini orqali aql, strategik fikrlash va ziyraklikni mezon qilib belgilaydi. Zamonaviy interpretatsiyada bu holat ayolning nikoh masalasidagi roziligi, shaxsiy tanlov huquqi va intellektual tenglik kabi tushunchalar bilan bog'lanadi. Natijada Barchin va Xolbeka obrazlari o'rtasida muhim tipologik yaqinlik aniqlanadi: Barchinda jismoniy-ma'naviy mezon orqali tanlash, Xolbekada esa intellektual mezon orqali tanlash modeli mavjud. Har ikkala holatda ham ayol syujetning passiv predmeti emas.

Ayol obrazining boshqa bir tipi o'zbek xalqining "Zumrad va Qimmat" ertagida namoyon bo'ladi. Ertakda Zumrad odobli, muloyim, aqlli va mehnatsevar qiz sifatida, Qimmat esa unga qarama-qarshi xususiyatlarni ifodalovchi obraz sifatida beriladi. Folklor poetikasiga xos antitezadan foydalanilib, ikki qizning xulq-atvori orqali ezgulik va yovuzlik, mehnatsevarlik va dangasalik, kamtarlik va ochko'zlik kabi qarama-qarshiliklar shakllantiriladi. Mazkur ertak ayol obrazini yaratishda ma'naviy poklik, mehnatsevarlik va kamtarlikning asosiy ijobiy belgilar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi [10].

"Zumrad va Qimmat"dagi obrazlar "Alpomish" yoki "Kuntug'mish"dagi qahramon ayollardan funksional jihatdan farq qiladi. Zumrad jismoniy kuch yoki ijtimoiy hokimiyat orqali emas, balki kundalik mehnati, sabri va odob-axloqi orqali ijobiy idealga aylanadi. Demak, an'anaviy folklorida ayol idealining kamida ikki xil modeli mavjud: epik-faol model Barchin va Xolbeka timsolida, axloqiy-maishiy model esa Zumrad timsolida namoyon bo'ladi. Qimmat esa ushbu axloqiy modelga qarama-qarshi qo'yilgan antiobraz vazifasini bajaradi. Bu qiyos ayol timsolining o'zbek folklorida yagona stereotip orqali emas, janr talablariga mos turli poetik modellar asosida yaratilganini ko'rsatadi.

Ertakning zamonaviy talqinida yana bir muhim jihat namoyon bo'ladi. An'anaviy o'qishda Zumradning sabri va itoatkorligi asosiy fazilat sifatida ko'rilgan bo'lsa, hozirgi talqinda uning chidamliligi, murakkab vaziyatga moslashishi, mehnat orqali o'z imkoniyatini namoyon etishi va axloqiy pozitsiyasini saqlashi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, bir xil folklor obrazi tarixiy davrga qarab turlicha semantik urg'u olishi mumkin: itoatkor qiz modeli zamonaviy talqinda psixologik bardoshli va mustaqil harakat qila oluvchi shaxs sifatida qayta o'qiladi. Bu holat folklor obrazining matni o'zgarmagan holda uning interpretativ maydoni kengayishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbek marosim folklorida esa ayol obrazi, ayniqsa, "yor-yor" qo'shiqlarida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Yor-yorlar nikoh to'yi jarayonida kelinni kuzatish bilan bog'liq bo'lib, ularda kelinning ota uyidan ajralishi, yangi xonadonga o'tishi, sog'inch, hayajon, yaxshi tilak va kelajak haqidagi umidlar ifodalanadi. Mazkur janr bir vaqtning o'zida quvonch va mungni birlashtiradi, kelin obrazi esa qo'shiqning markaziy timsollaridan biri bo'lib xizmat qiladi [3; 4].

Yor-yor qo'shiqlarida kelin obrazining an'anaviy funksiyasi bir ijtimoiy maqomdan ikkinchisiga o'tish bilan belgilanadi. Qiz ota-onasi xonadonining farzandi maqomidan yangi oilaning kelini maqomiga o'tadi. Shu sababli yor-yorlarda ayolning ichki kechinmasi individual tuyg'u bo'lish bilan birga, jamoaviy marosimning tarkibiy qismiga aylanadi. Zamonaviy sharoitda yor-yorning ijro muhiti ma'lum darajada o'zgargan: u faqat an'anaviy to'y marosimida emas, folklor-etnografik ansambllar va sahna repertuarlarida ham yashashda davom etmoqda. Bunda marosimga bog'langan kelin obrazi asta-sekin milliy madaniyat va urf-odatni ifodalovchi ramziy obraz sifatida ham namoyon bo'ladi.

2-jadval. Folklor namunalarda ayol obrazining an'anaviy va zamonaviy talqini

Folklor namunasi	Ayol obrazi	Aniq syujet belgisi	An'anaviy funksiyasi	Zamonaviy talqindagi asosiy mazmun
"Alpomish"	Barchin	Sovchilar oldiga to'rtta shart qo'yadi, Alpomishga xabar yuboradi	Sadoqatli yor, alp qiz, qahramonning ma'naviy tayanchi	Shaxsiy tanlov, qat'iyat, faol pozitsiya
"Kuntug'mish"	Xolbeka	Sovchilarga nardda g'alaba qilish shartini qo'yadi	Aqli va talabchan yor	Intellektual tenglik, rozilik va mustaqil qaror
"Zumrad va Qimmat"	Zumrad	Mehnat, sabr va odob orqali sinovlardan o'tadi	Ideal qiz, ezgulik timsoli	Bardoshlilik, o'zligini saqlash, faol moslashuv
"Zumrad va Qimmat"	Qimmat	Ochko'zlik va salbiy xulq oqibatida jazolanadi	Salbiy ayol tipi, antiobraz	Xulq-atvor oqibatlarini namoyon qiluvchi kontrast model
Yor-yorlar	Qiz / kelin	Ota uyidan kuzatilishi, yangi oilaga kirishi	Oilaviy davomiylik va marosim subyekti	An'ana tashuvchisi, milliy-madaniy identiklik timsoli

O'tkazilgan qiyosiy tahlil o'zbek folklorida ayol obrazining uch asosiy funksional modelini ajratishga imkon beradi. Birinchi model faol-epik ayol bo'lib, unga Barchin va Xolbeka mansub: ular qaror chiqaradi, shart belgilaydi va voqea rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi model axloqiy-maishiy ayol bo'lib, Zumrad timsolida mehnatsevarlik, sabr, mehr va poklik orqali namoyon bo'ladi. Uchinchi model marosimiy ayol bo'lib, bunda qiz va kelin obrazlari oilaviy hamda ijtimoiy maqomning o'zgarishini ramziy ifodalaydi.

O'zbek folklorida ayol obrazi turli janrlarda rang-barang badiiy va ijtimoiy funksiyalarda namoyon bo'ladi. "Alpomish"dagi Barchin va "Kuntug'mish"dagi Xolbeka obrazlari ayolning faqat sadoqatli yor emas, balki mustaqil tanlov qiluvchi, shart belgilovchi va syujet rivojiga faol ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida tasvirlanganini ko'rsatadi. "Zumrad va Qimmat" ertagida esa ayol obrazi mehnatsevarlik, sabr, odob va axloqiy poklik mezonlari orqali shakllantirilgan bo'lsa, yor-yor qo'shiqlarida qiz va kelin timsoli oilaviy hamda marosimiy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil natijalari an'anaviy o'zbek folklorida ayol obrazining yagona qolip asosida yaratilmaganini, balki faol-epik, axloqiy-maishiy va marosimiy modellar orqali ifodalanganini ko'rsatdi. Zamonaviy talqinda esa ushbu an'anaviy belgilar mustaqillik, shaxsiy tanlov, intellektual faollik, ijtimoiy tashabbuskorlik va o'zligini anglash kabi yangi mazmunlar bilan boyimoqda. Demak, o'zbek folklorida ayol obrazining zamonaviy transformatsiyasi an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi emas, balki ularning yangi ijtimoiy-madaniy sharoitda qayta talqin qilinishi va semantik jihatdan kengayishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. *Узбекский народный героический эпос*. – Москва: Гослитиздат, 1947. – 520 с. – [Источник](#)
- Musina G'. *O'zbek xalq dostonlarida xotin-qizlar obrazi*. – Toshkent: Fan, 1983. – [Manba](#)
- Alaviya M. *O'zbek xalq marosim qo'shiqlari*. – Toshkent: Fan, 1974. – [Manba](#)
- Sarimsoqov B. *O'zbek marosim folklori*. – Toshkent: Fan, 1986. – 216 b. – [Manba](#)
- Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi: darslik*. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – [Manba](#)
- Jo'rayev M., Eshonqulov J. *Folklorshunoslikka kirish: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – 180 b. – ISBN 978-9943-5010-9-6. – [Manba](#)
- Jo'rayev M., O'rayeva D. *O'zbek mifologiyasi*. – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020. – 496 b. – ISBN 978-9943-6248-4-9. – [Manba](#)
- Yo'ldosh o'g'li F. *Alpomish: o'zbek xalq qahramonlik dostoni / yozib oluvchi M. Zarifov; nashrga tayyorlovchilar H. Zarif, T. Mirzayev*. – Toshkent: Sharq, 2010. – 400 b. – ISBN 978-9943-00-553-2. – [Manba](#)
- Kuntug'mish. Ravshan: o'zbek xalq dostonlari*. – Toshkent: Sharq, 2011. – 365 b. – ISBN 978-9943-00713-0. – [Manba](#)
- Zumrad va Qimmat: o'zbek xalq ertagi*. – Elektron manba. – [Manba](#)
- Eshmatova Y. B. Study of the Image of Women in Uzbek Folklore // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2025. – Vol. 6, Issue 6. – P. 1293–1297. – DOI: [10.5281/zenodo.15701457](#)
- Abdusalomova N. "Zevaxon" dostoni syujetlarida ayollar obrazi tadqiqi // – 2025. – B. 86–90. – DOI: [10.71337/inlibrary.uz.scin.79249](#)
- Avezberdiyeva N. K. Linguocultural Features of Female Characters in Uzbek and French Folk Tales //. – 2026. – Vol. 12, Issue 10. – [Source](#)